

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

AL-BUKHARI

Scientific journal

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

ISSN: 3030-3273

AL-BUKHARI

Scientific journal



ORIENTAL
UNIVERSITETI

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

(Birinci son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qaroriga muvofiq tarix va filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Toshkent – 2026

Bosh muharrir:

Farhod Maksudov, tarix fanlari doktori (DSc)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Malika Nasirova, filologiya fanlari nomzodi, professor

Mas’ul muharrir:

Govhar Rahmatova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“Al-Buxoriy”

ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

1. Azamat Ziyo t.f.d., akademik, professor – tahrir hay’ati a’zosi;
2. Zohidjon Islomov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
3. Shorustam Shomusarov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
4. Durdona Lutfullayeva f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
5. Komiljon Rahimov t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
6. Shamsiddin Kamoliddinov t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
7. Xolida Alimova f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
8. Aftondil Erkinov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
9. Albert Burxanov t.f.d., akademik (Tatariston) – tahrir hay’ati a’zosi;
10. Samal Tuleubaeva f.f.d., professor (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;
11. Sayfullo Mullodjanov t.f.d., professor (Tojikiston) – tahrir hay’ati a’zosi;
12. Zilola Xudoyberganova f.f.d., professor (Turkiya) – tahrir hay’ati a’zosi;
13. Akram Habibullayev t.f.d., professor (AQSh) – tahrir hay’ati a’zosi;
14. Ashirbek Mo‘minov t.f.d., dotsent (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;
15. Murtazo Saidumarov f.f.n., professor (Saudiya Arabistoni) – tahrir hay’ati a’zosi.

MUNDARIJA

FILOLOGIYA

Murtazo Saydumarov, Homid Abbos Xon “Al-a’sho ko’chasidagi ishq qissalari” romanida an’ana va erkinlik o’rtasidagi ziddiyatlar	4
Qurbonov Zayniddin Oltinovich, Oltinova Bahora Zayniddinovna O‘zbek tilida frazeologizmlar etnosotsiopragmatik aspekt sifatida	17
Tashpulatova Shirina Ziyoviddin qizi Ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning gender xususiyatlari tadqiqi dolzarbligi xususida	25
Adambayeva Nargiza Kadambayevna Inglizabon tadqiqotlarda XIX asr Xorazm turkiy adabiy manbalari	34
Xasanov Islombek Xasanboy o‘g‘li Arab tilida uslubiyatning tarixiy shakllanishi	44
Boborajabov Muhammadiqbol Emomaliyevich Arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarda milliy qadriyatlar va axloqiy normalarning ifodalanishi	57
Xaydarova Munira O‘tkir qizi Xiyazm stilistik vositasining nazariy asoslari.....	70

TARIX

Арипова Зухра Джахангировна Система образования в медресе «султанья» в Египте	80
Tayronov Yoqubjon Rapiqovich XIX asr ikkinchi yarimida Turkistonda mahalliy tadbirkorlarning yangi avlodining shakllanishi	94
Djurayev Ikrom Nematovich Markaziy osiyoda qadimgi davr ko‘chmanchi va o‘troq xalqlarning siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy munosabatlari	105
Sattorov Nurbek Abdurazzoqovich O‘zbek xalqining etnogenezi masalasi: nazariy-metodologik yondashuvlar va akademik A.Asqarov qarashlari	115
Kamolov Jahongir Mamasidiqovich Piri Raisning dengizshunoslik asari “Bahriya” bo‘yicha tahlillar	125
Sattorov Ulug‘bek Abdurazzoq o‘g‘li O‘zbekiston va YUNESKO hamkorligi rivojlanishida moddiy madaniy merosning o‘rni	132
Botirov Boburmirzo Mirodiljon o‘g‘li Islom manbalarida moliyaviy ibodatlardagi majburiyatlarning tarixiy bosqichlari ...	143

**ISLOM MANBALARIDA MOLIVAVIY IBODATLARDAGI
MAJBURIYATLARNING TARIXIY BOSQICHLARI****STAGES OF THE HISTORICAL DEVELOPMENT OF OBLIGATIONS IN
FINANCIAL ACTS OF WORSHIP IN ISLAMIC SOURCES****ЭТАПЫ ИСТОРИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ В
ФИНАНСОВЫХ АКТАХ ПОКЛОНЕНИЯ В ИСЛАМСКИХ
ИСТОЧНИКАХ****Botirov Boburmirzo Mirodiljon o'g'li***Oriental universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlari**kafedrasi o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi**Tel: +998 90 925-00-93**E-mail: [bbotirov.@gmail.com](mailto:bbotirov@gmail.com)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom huquqi manbalarida moliyaviy ibodatlardagi majburiyatlarning shakllanishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor zakot, ushr, fitr sadaqasi, fidya va haj kabi moliyaviy ibodatlarning Qur'on, sunnat, ijmo va qiyos asosida tartibga solinishiga qaratiladi. Ayniqsa, hanafiy mazhabi doirasida Burhoniddin Marg'inoniyning "al-Hidoya", Imom Muhammad Shayboniyning "Kitobu-l-asl" hamda Abu Yusufning "Kitobu-l-xaroj" asarlarida moliyaviy majburiyatlarning huquqiy va ijtimoiy ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqotda moliyaviy ibodatlarning jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, adolat va ijtimoiy himoyani ta'minlashdagi o'rni asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *islom huquqi, moliyaviy ibodatlar, zakot, ushr, fitr sadaqasi, al-Hidoya, hanafiy mazhabi, majburiyatlar.*

Annotation: This article analyzes the historical stages of the formation and development of financial obligations in Islamic sources. Special attention is paid to financial acts of worship such as zakat, ushr, sadaqat al-fitr, fidya, and hajj, which are regulated on the basis of the Qur'an, Sunnah, ijma, and qiyas. Within the Hanafi school, the works of Burhan al-Din al-Marghinani's al-Hidaya, Imam Muhammad al-Shaybani's Kitab al-Asl, and Abu Yusuf's Kitab al-Kharaj are examined as key sources reflecting the legal and social dimensions of financial worship. The study demonstrates that financial obligations in Islam played an important role in ensuring social justice, economic balance, and social protection throughout history.

Keywords: *Islamic law, financial worship, zakat, ushr, sadaqat al-fitr, al-Hidaya, Hanafi school, obligations*

Аннотация: В данной статье рассматриваются исторические этапы формирования и развития финансовых обязательств в источниках исламского права. Особое внимание уделяется таким видам финансового поклонения, как

закят, ушр, садакат аль-фитр, фидья и хадж, регулируемыми на основе Корана, сунны, иджмы и кияса. В рамках ханафитского мазхаба анализируются труды Бурхана ад-Дина аль-Маргинани «аль-Хидая», Имама Мухаммада аш-Шайбани «Китаб аль-Асл» и Абу Юсуфа «Китаб аль-Харадж». В статье обосновывается, что финансовые религиозные обязанности способствовали обеспечению социальной справедливости, экономической стабильности и системы социальной защиты в мусульманском обществе.

Ключевые слова: *исламское право, финансовые поклонения, закят, ушр, садакат аль-фитр, аль-Хидая, ханафитский мазхаб, обязательства.*

KIRISH

Islom huquqi tizimida moliyaviy ibodatlar (zakot, ushr, fitr sadaqasi, fidya, haj va shu kabi to'lovlar) nafaqat diniy-axloqiy majburiyat, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi muhim mexanizm sifatida tan olinadi. Ushbu majburiyatlar Qur'on, sunnat, ijmo' va qiyos kabi asosiy shariat manbalari asosida shakllangan bo'lib, ularning tarixiy rivojlanishi islom jamiyatining ijtimoiy adolat, iqtisodiy muvozanat va kambag'allikka qarshi kurashdagi o'rini belgilaydi.

Moliyaviy ibodatlarining majburiyatlari islomning dastlabki davrlaridan boshlab bosqichma-bosqich shakllangan. Makka davrida (Makkada nozil bo'lgan suralarda) zakot va sadaqa asosan axloqiy va ma'naviy tozalanish (tazkiya) ma'nosida tilga olingan bo'lib, boylikni muhojirlarga berish savobli ish sifatida ta'kidlangan (masalan, Baqara surasi 177-oyat, Ma'arij surasi 24-25-oyatlar). Bu davrda majburiyatlar hali aniq huquqiy shaklga ega bo'lmagan, balki imon va taqvo bilan bog'liq bo'lgan. Madina davrida esa (Hijratdan keyin, xususan, Hijratning 2-yilida) zakot rasman farz qilingan, uning nisob miqdori, to'lov vaqti va oluvchilar toifalari batafsil belgilangan (Toba surasi, 60-oyat va tegishli hadislar). Bu bosqichda zakot nafaqat shaxsiy ibodat, balki davlat darajasidagi majburiyatga aylangan, Abu Bakr (r.a.) davridagi Ridda voqealari esa uni davlat siyosati sifatida mustahkamlashga misol bo'lgan.

Hanafiy mazhabining rivojlanishida bu majburiyatlarning huquqiy tizim sifatida shakllanishi Imom Abu Hanifa (r.h.), uning shogirdlari Imom Muhammad Shayboniy va Abu Yusuf asarlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Imom Muhammad Shayboniyning "Kitobu-l-asl" asarida zakotning chorvachilik, dehqonchilik va tijoratga oid batafsil qoidalari keltirilgan bo'lsa, Abu Yusufning "Kitobu-l-xaroj" asari zakot va xarojni davlat moliyasi nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Burhoniddin Marg'inoniy "al-Hidoya" asarida esa bu majburiyatlarni mukammal tizim sifatida jamlagan: zakotning nisob va miqdorlari (tuya, qo'y, kumush, tilla, hosil va boshqalar bo'yicha), fitr sadaqasi, fidya va hajning moliyaviy shartlari aniq belgilangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Islom huquqi manbalarida moliyaviy ibodatlardagi majburiyatlarning shakllanishi va tarixiy rivojlanish bosqichlarini o'rganishda eng muhim o'rinni hanafiy mazhabining klassik fiqh asarlari egallaydi. Ushbu mavzu bo'yicha tadqiqotlar asosan Qur'on, Sunnat, ijmo' va qiyos asosida yaratilgan quyidagi asosiy manbalarga tayangan holda olib borilgan.

Imom Muhammad ash-Shayboniyning "Kitobu-l-Asl" (Tarjima, 2012) asari Hanafiy mazhabining eng dastlabki va eng ishonchli asarlaridan biri hisoblangan "Kitobu-l-Asl" (12 jild) moliyaviy ibodatlarni batafsil yoritgan ilk yirik fihiy asardir. Asarning 2- va 3-jildlaridagi "Kitobu-z-Zakot" bo'limi (92 betdan iborat) chorvachilik, dehqonchilik, tijorat mollaridan zakot, ushr sadaqasi va fitr sadaqasi masalalariga bag'ishlangan.

Abu Yusuf Ya'qub ibn Ibrohimning "Kitobu-l-Xaroj" (Tarjimon Mannopova A.,2021) asari Xalifa Horun ar-Rashidning topshirig'i bilan yozilgan ushbu asar zakot va xaroj masalalarini davlat moliyasi va iqtisodiy siyosat nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Asarda zakotni davlat darajasida yig'ish, Abu Bakr (r.a.) davridagi Ridda voqealari, zakot to'lashdan bosh tortganlarga nisbatan qo'llanilgan choralar va zakot bilan xarojni aralashtirib bo'lmasligi kabi masalalar chuqur yoritilgan. "Kitobu-l-Xaroj" moliyaviy ibodatlarni nafaqat shaxsiy, balki davlat va ijtimoiy-iqtisodiy institut sifatida ko'rsatgan muhim manbadir.

Burhoniddin Marg'inoniy – "Al-Hidoya sharh bidoyatil muftadi" (tarjimon Mustafu Ahmad Boz, 1994:J.1-2.) Hanafiy mazhabidagi eng mukammal va tizimli asarlardan biri bo'lib, keyingi asrlarda hanafiy fiqhining eng nufuzli manbasi sifatida qabul qilingan. "Al-Hidoya"ning ibodatlar qismida zakot, fitr sadaqasi, fidya, ushr, xiroj va hajning moliyaviy jihatlari juda batafsil va mantiqiy tartibda bayon etilgan. Hayvonlar, till-kumush, tijorat mollari, ekinlar va ma'danlardan olinadigan zakot miqdorlari, nisoblar, shartlar va istisnolar bu yerda aniq ko'rsatilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tarixiy-tahliliy, qiyosiy-huquqiy va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Qur'on oyatlari, hadislar va fihiy manbalar o'zaro solishtirilib, moliyaviy ibodatlardagi majburiyatlarning shakllanish bosqichlari aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalariga ko'ra, moliyaviy ibodatlar dastlab diniy-axloqiy mazmunga ega bo'lgan bo'lsa, keyinchalik davlat va jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi huquqiy majburiyat darajasiga ko'tarilgan. Zakot, ushr va fitr sadaqasi orqali ijtimoiy tenglik va kambag'allikni kamaytirish maqsad qilingan.

Islom dini ta'limotiga ko'ra, moliyaviy ibodat deganda avvalambor, zakot ibodati tushuniladi. Shuning bilan birga turli holatlardagi to'lovlar: ushur, fitr sadaqasi, fidya va boshqa to'lovlar ham moliyaviy ibodat turlariga kiradi. Ushbu ibodatlarni ado etishdagi majburiyatlar Qur'on, sunnat, ijmo, qiyos kabi islom huquqi manbalari asosida tartibga solinadi.

“Al-Hidoya” asarida moliyaviy ibodatlar zakot kitobida zikr qilingan (1:358-345). Zero, islomdagi asosiy 5 arkon orasida imon ruknidan tashqari namoz, ro'za va haj ibodatlari ham bilvosita moliyaviy jihatlarga ega bo'lsa-da, ular orasida zakot bevosita moliya bilan bog'liq ibodat hisoblanadi.

Ilk islom tarixiga murojaat qilinadigan bo'lsa, Makkada nozil bo'lgan suralar birinchi davrda asosan, yagona Allohga imon keltirishga chaqiriq bilan bog'liq oyatlardan iborat bo'lgan bo'lsa-da, ularda ham moliyaviy ibodatga kattagina e'tibor qaratilgan. Masalan, miskinlarga taom berishning naqadar ulug' savob ekanligi, bu ishni qilmaslik yoki boshqalarga uni qilishga chaqirmaslik qay darajada yomon ish ekanligi ta'kidlanadi (2:2, 576, 595, 602).

Madinada nozil bo'lgan oyatlarda esa moliyaviy ibodatlarning kimlarga berilishi kabi ma'lumotlar bayon qilingan. Ammo kimlar berishi, nisob miqdorlari, qancha muddatda berilishi kabi tafsilotlar hadislarda bayon qilingan.

Burhoniddin Marg'inoniyning “al-Hidoya” asari islom tarixidagi moliyaviy ibodatlar bo'yicha majburiyatlarni tartibga solish jarayonining bir bosqichini o'zida aks ettiradi. Hanafiy mazhabi tarixiga nazar solinadigan bo'lsa, Qur'on, hadis, ijmo, qiyos kabi shariat manbalarini o'zida aks ettirgan bir nechta bosqichdan iborat manbalar to'plami mavjud. Ular 1) usul; 2) navodir; 3) fatovo va voqeot kitoblari bo'lib, ularning barchasi moliyaviy ibodatlardagi majburiyatlarni tartibga solish tarixini tashkil etadi.

Ilk hanafiy manbalaridan bo'lmish Imom Muhammad Shayboniyning (749-806) 12 jildda chop etilgan “Kitobu-l-asl” (3:52-144) asarining 3-jildida “Zakot kitobi” qismi 92 betdan iborat hajmda berilgan. Hanafiy mazhabi asoschilari Imom Abu Hanifa va Abu Yusufdan bevosita ilm olgan bu olim ko'pgina fiqhiy masalalarda o'zi ijtihod qilgan. Shu sababli ham Imom Muhammad Shayboniyning “Kitobu-l-asl” asari hanafiy mazhabining asosiy manbalaridan hisoblanadi va Burhoniddin Marg'inoniyga qadar yetib kelgan fiqhiy masalalarning tarixiy rivojlanish bosqichlarini aynan shu kitobda ko'rish mumkin.

“Kitobu-l-asl”ning “Zakot” qismida tuya, qo'y, qoramollardan beriladigan zakot miqdorlari, ushr sadaqasi, uning shartlari haqida batafsil to'xtalib o'tiladi. Ushbu kitob hanafiylik mazhabidagi moliyaviy ibodatlarga oid majburiyatlarning ham boshlang'ich tarixiy bosqichlarini o'zida aks ettiradi.

“Kitobu-l-asl” bevosita pul bilan bog‘liq zakotning tartiblari emas, balki tuya, qo‘y, qoramollardan beriladigan zakotlar haqidagi bo‘lim bilan boshlanadi. Shundan so‘nggina puldan beriladigan zakot haqida so‘z yuritiladi. Unda ham tijoratchilarning mollaridan ajratiladigan zakot haqida so‘z boradi. Shundan so‘ng ushr va qimmatbaho toshlar va taqinchoqlardan beriladigan zakot miqdorlari ko‘rsatiladi. Kitobdagi ushbu yondashuvdan xulosa qilish mumkinki, fiqhda asosiy savollar chorvachilik va dehqonchilikka oid masalalarda bo‘lgan. Tijorat va boshqa ishlab chiqarish vositalaridan tushadigan tushumning va ulardan to‘lanadigan zakotning ulushi nisbatan kamroq bo‘lgan.

Fitr sadaqasi ham moliyaviy ibodat masalalari ichidagi muhim jihatlardandir. Bu masalada islom manbalarida asosan, Payg‘ambar (s.a.v.)dan rivoyat qilingan “Har bir hur va katta yoki kichik yoshda bo‘lgan qul uchun yarim so (صاع) bug‘doy yoki bir so xurmo yoki bir so arpa berib (fitr sadaqasini) ado etinglar”, degan hadisni keltiradilar (4,5:173, 434). Ushbu keltirilgan hadisning rivoyat qilinishi qat‘iy dalillik darajasiga yetmagan hisoblanadi. Ammo shunga qaramay, bu kabi hadislar orqali vojib hukmlar sobit bo‘lishiga misol qilib keltirilgan.

Hanafiy mazhabi asoschilaridan biri bo‘lgan yana bir mujtahid olim Abu Yusuf Yaqub ibn Ibrohim Ansoriy Kufiy (731-798) qalamiga mansub “Kitobu-l-xaroj” asarida zakot masalasi batafsil yoritilgan. Xalifa Horun ar-Rashidning (786-809) talabiga binoan yozilgan ushbu asarda o‘z noiga binoan asosan “xaroj”lar, ya‘ni to‘lovlar haqida so‘z ketadi. Chunki Horun ar-Rashid olimdan asosan aholidan olinadigan to‘lovlar haqida so‘ragan edi.

“Kitobu-l-xaroj” asarining “Zakot” bobida muallif xalifaga bir qator tavsiyalarni beradi. Xususan, Payg‘ambar (s.a.v.) Muoz ibn Jabalni Yamanga jo‘natayotib aytgan so‘zlari, ya‘ni: “Alloh taolo ularga boylaridan olinib, faqirlariga qaytariladigan sadaqani farz qilgan”ligi haqidagi hadis mohiyatini tushuntiradi. Bu ishda zakot yig‘ishga mas‘ul qilinganlarga Payg‘ambar (s.a.v.) va xulafoi roshidin davrlarida amal qilingan shartlarga rioya qilishlarini buyurishini so‘raydi (6:112).

Qo‘y va qoramollardan beriladigan zakotning miqdori o‘zgarmas etib belgilanganini Abu Yusuf bir hadis bilan dalillaydi. Unga ko‘ra, “Rasululloh (s.a.v.) zakot haqida maktub yozib, uni qilichlariga bog‘lab yoki vasiyatnomalariga birlashtirib qo‘ydilar va uni to vafotlariga qadar chiqarmadilar. Rasululloh (s.a.v.)dan so‘ng undan Abu Bakr (r.a.) vafqotiga qadar foydalandi, so‘ngra esa Umar (r.a.) foydalandi”. Mazkur maktubda quyidagilar yozilgan edi: 40 tadan to 120 tagacha bo‘lgan qo‘ydan 1 ta qo‘y, va h.k. (6:112-113): Hayvonlardan olinadigan zakot miqdorlari keyingi manbalar, xususan, Burhoniddin Marg‘inoniyning “al-Hidoya” asarida ham xuddi shu shaklda takroran keladi (7:99).

Asardagi “Zakot to‘lashdan bosh tortishning haromligi, ...” deb boshlanuvchi bob alohida e‘tiborga loyiq. Chunki unda zakot nafaqat diniy majburiyat, balki davlat darajasidagi ahamiyatga ega masala sifatida qaralgan. Bunda mamlakat ichidagi fuqarolarning ijtimoiy himoyasi uchun ham moli nisobga yetgan kishilar uchun uni olishga haqdor bo‘lgan ehtiyojmand kishilarga ushbu majburiyatni bajarish zaruriy ekanligiga xalifa Abu Bakr (r.a.) davrida yuz bergan “Ridda” voqeasini keltiradi. Unga ko‘ra, “Abu Bakr (r.a.) Rasulullohning vafotlaridan so‘ng arablar zakot to‘lashdan bosh tortganlarida: “Agar Rasulullohga bergan zakotlarini bermasalar, ularga qarshi urush qilaman”, – degan va ular zakot bermay qo‘yganlarida ularga qarshi urushni qonuniy deb hisoblagan” (6:119). Zakot va boshqa soliqlar davlat rahbari tomonidan tayinlangan mas‘ullar amalga oshirgan ushbu davrda zakotga shu qadar jidiy qaralgan.

“Kitobu-l-xaroj” da e‘tiborga loyiq joylaridan yana biri shundaki, muallif unda xalifaga nisihat qilayotib, “Zakot yig‘ishni xaroj yig‘uvchilarga topshirma”, deydi. Shuningdek, muallif zakot va xaroj pullarini bir-biri bilan aralashtirish ham mumkin emasligini ta’kidlaydi (6:119-120).

Markaziy Osiyoda to‘lov tizimlari har doim ham bir xilda bo‘lavermagan. Masalan, bu mintaqadagi qoraxitoylar bosib olgan yerlarda xuddi Xitoydagi kabi mavjud hovli (xonadon)lar soniga bog‘liq holda amalga oshirilgan. Bunda har bir hovlidan bir dinordan undirilgan. Ibn al-Asirning (1160-1233) “al-Komil fi-t-tarix” asarida bayon qilishicha, Qoraxitoylar bosib olgan hudud aholisining turmush tarzini o‘zgartirmagan, faqatgina har bir xonadondan soliq undirish bilan cheklangan (8:19).

Islom huquqi normalari ham insonlarga huquq va erkinliklarini kafolatlagan holda ularning zimmasiga muayyan majburiyatlarni ham yuklagan. Bu bilan inson oilasi, o‘zi yashab turgan jamiyat va davlat oldida ma’lum burchlarni bajarishi belgilangan.

Diniy majburiyatlarni ado etishning tarkibiy qismlari mavjud (9:26). Sunniylar uni tashqi ko‘rinishiga ko‘ra quyidagi uch qismga bo‘ladilar: ibodat (ibodatlar va ularga tegishli majburiyatlar), muomalot (fuqarolik huquqi munosabatlari), uqubot (jinoyat va jazo masalalari) (10:430).

Dastavval fiqh ilmida belgilab berilgan haqqulloh (Allohning huquqi) va haqqul abd (banda, ya’ni kishilarning huquqi) atamalarining tub mohiyatini chuqur anglab olish maqsadga muvofiq.

Fiqhda haqqulloh ikki qismga bo‘linadi: Birinchi qism Alloh bilan bandalar orasidagi munosabatdan iborat bo‘lib, yaratuvchiga yaqin bo‘lish uchun barcha musulmonlar tomonidan bajariladi. Ular diniy va axloqiy mohiyatga ega. Masalan namoz, ro‘za, zakot, haj va boshqa ibodatlarini bajarishda har bir oqil va bolig‘ kishining o‘zi mas‘ul bo‘lib, Allohning oldida javobgar hisoblanadi.

Haqqullohning ikkinchi qismi jamiyat manfaatlarini rioya qilgan holda shaxsiy huquqdan ustun qo‘yilib bajarilishi zarur bo‘lgan huquqdir. Huquq tili bilan ifodalansa,

ushbu soha ommaviy huquqdan iborat bo‘lib, jinoyat huquqi, xalqaro huquq, xalqqa tegishli davlat boyliklari, barcha fuqarolar foydalanadigan umumiy yo‘llar va umumiy muassasalarni qamrab oladi. Ushbu ma’noda agar haqqulloh (ommaviy huquq) bilan shaxsiy huquq bir-biriga qarshi tursa, haqqulloh ustun qo‘yiladi.

Abdulvahob Xalof bu sohaga ikkita qo‘shib quyidagicha tasnif etgan:

1. Ikkala haq qo‘shilib, lekin Allohning huquqi ustun turgan haq: Qazf haddi, ya’ni bir ayolni yolg‘ondan zinokorlikka nisbat berib so‘kish uchun belgilangan jazo. Qazf jinoyati isbotlangandan keyin ayol o‘z huquqidan o‘tib, uni kechirsa ham haqqulloh nuqtayi nazaridan jazo soqit bo‘lmaydi.

2. Ikkala huquq qo‘shilib, lekin bandaning haqqi ustun turgan huquq. Masalan, qasos huquqi, unda maqtulning valiyisi qotilni afv etish salohiyatiga ega bo‘ladi (11:293).

Xaqqul abd esa shaxsiy huquqdan iborat bo‘lmish barcha huquq sohalarini qamrab olib, oila huquqi, fuqarolik huquqi, vaqf huquqi (jamg‘armaning bir shakli) va boshqa tarmoqlarga bo‘linadi.

Axloqiy me‘yorlar islom huquqida ijobiy ahamiyatga ega bo‘lsa ham, aytib o‘tilgan sohalarning hech biri sof axloqiy normalardan iborat emas, balki amaliy-dunyoviy mohiyatga ega bo‘lib, o‘rni kelganda qonuniy majburiyat tusini oladi.

Islom shariatida belgilangan majburiyatlar o‘zining manbasi va huquqiy oqibatiga ko‘ra quyidagi kategoriyalardan iborat bo‘ladi:

1. Farz yoki vojib, ya’ni amalga oshirilishi mukofotga va tark etilishi jazoga sabab bo‘luvchi majburiy amal. Shuningdek, farz – shariat ko‘rsatmalarini bajarishga ahd bo‘lgan kishidan bajarilishi qat’iy talab qilingan amal (5:43). Vojib – farz kabi bajarish qat’iy talab qilingan, lekin dalillar farznikidan kuchsiz bo‘lgan amallar. Masalan, fitr sadaqasi va qurbonlik kabi. Ushbu kategoriya farzi ayn va farzi kifoyaga bo‘linadi.

2. Sunna (12:11-12; 72, 32), mandub, mustahab, maqbul, marg‘ub, nafl yo nofila tavsiya etilgan, ya’ni tark etilishi jazoga sabab bo‘lmay, bajarilishi savob (ma’naviy mukofot)ga loyiq deb bilingan amallar. Mazkur amallardan har birini bajarish tatavvu‘ deb ataladi.

3. Muboh (joiz deb ham ataladi) bajarilishi va bajarilmasligi na mukofot va na jazoga sabab bo‘lmaydigan amallar. Ularni bajarish yoki bajarmaslik insonning o‘z ixtiyoriga topshirilgan. Bunday ishlar iboha, ya’ni insonning ixtiyorida bo‘lgan ishlar sohasini tashkil etib, “ibohai shar’iya” – shariat tomonidan berilgan ixtiyor, deb ataladi.

4. Makruh, ya’ni jazoga sabab bo‘lmaydigan, ammo islom qonunlari me‘yorlariga uyg‘un kelmaydigan ishlar. Keyingi davrlarda ushbu qismda “xilof al-avlo” (maqbulga qarshi) atamasi ham qabul qilingan. Unga ko‘ra “mandub” bilan “muboh” o‘rtasida “avlo” (marg‘ub va maqbul) kategoriyasi turadi.

5. Harom (mahzur deb ham ataladi) taqiqlangan yoki jazolanadigan amallar (13:91). Shuningdek, tark etilishi qat'iy va majburiy uslubda talab qilingan va uni amalga oshirgan kishi ta'qib ostiga olinib, jazolashga hukm etiladigan ishlar, masalan, odam o'ldirish, o'g'rilik qilish kabi ishlar. Bunday ishlar muharramot va har biri harom yoki muharram deb ataladi.

Iboha sohasi, ya'ni muboh yoki joiz ishlar sohasi jamiyat hayotining asosiy qismini tashkil etgani uchun, qonun sohasiga kirmaydi (10:430-431, 13, 18).

Ushbu kategoriyalar asosida sodir etilgan xatti-harakatlarning huquqiy oqibati baholanib, unga gunoh yoki savob berilishi islom huquqi manbalarida belgilangan. Farz, vojib va harom kategoriyalari qat'iy darajadagi majburiyatlar, sunnat, mustahab va makruh kategoriyalari qat'iy bo'lmagan majburiyatlar hamda muboh kategoriyasi esa inson ixtiyoriga havola etilgan va amalga kiritilgan. Shuningdek, islom shariatida bajarilishi qat'iy talab etilgan majburiyatlar asosan halol va harom kategoriyasidan kelib chiqadi.

Islom huquq manbalaridagi ijtimoiy ahamiyatga ega majburiyatlardan eng kattasi – moliyaviy majburiyatlar hisoblanib, bunday majburiyatlar moliyaviy ibodatlar nomi bilan haj va zakot mavzulariga kiritilgan. Moliyaviy ibodatlar haj, zakot, ushr, xiroj, sadaqa kabi turlarga bo'linadi.

Burhoniddin Marg'inoniy "al-Hidoya" asarida majburiyatga oid masalalarga keng o'rin ajratib, ularning kelib chiqish manbalari, mazmuni va ijtimoiy-iqtisodiy va diniy ahamiyatini ochib bergan.

Moliyaviy ibodatlardan biri zakot (nisobga yetgan molidan ma'lum qismini ma'lum shaxslarga mulk qilib berish) bo'lib, "al-Hidoya" asarining ibodat qismida alohida "Zakot bo'lim"ida ochib berilgan (7:95). Yuqorida zakot oluvchi shaxslar va uning ijtimoiy ahamiyati haqida to'xtalangan edi. Mazkur bobda esa zakot ibodatini ado etishdagi majburiyatlar haqida so'z boradi.

Qur'on va u asosida yuzaga kelgan islom fiqhi inson turmushining barcha sohalarini, jumladan, musulmonning majburiyatlarini ham qamrab oladi. Tadqiqotchilarning bu mavzuga qiziqishining boisi ham ana shunda (15).

Qur'ondagi ayrim oyatlarda musulmonning o'ziga xos majburiyatlari ochiq-oydin bayon etilgan. Masalan, "Baqara" surasining 177-oyatida: "Yuzlaringizni Mashriq va Mag'rib tomonlariga buraverishingiz yaxshilik emas, balki Allohga, oxirat kuniga, farishtalarga, kitoblarga, payg'ambarlarga imon keltirgan, o'zi yaxshi ko'rib turib molini qarindosh-urug'lariga, yetim-yesirlarga, miskin-bechoralarga, yo'lovchi-musofirlarga, tilanchi-gadolarga va qullarni ozod qilish yo'lida beradigan, namozni to'kis ado qilib, zakotni beradigan kishi va ahdlashganlarida ahdlariga vafo qilguvchilar va xususan og'ir-yengil kunlarda va jang-u jadal paytida sabr-toqat

qiluvchilar yaxshi kishilardir. Ana o‘shalar chin imonli kishilar va ana o‘shalar taqvodordirlar” (2:27), – deyilgan.

“Zakat – o‘ziga xos muhtoj musulmonlar foydasiga olinadigan soliq, – deb hisoblaydi N. I. Matar. – Qur’onda zakot xudojo‘ylik bilan bog‘lanadi, chunki xudoga ishonish ezgu ishlarda namoyon bo‘ladi. Musulmon yilda bir marta o‘z mablag‘ining 2,5 foizini zakot sifatida muhtojlarga beradi” (16:53).

Shuningdek, sabiy (bola), majnun, mukotab qulning zimmasiga zakot berish majburiyati yuklatilmagan.

Zakat berilishi belgilangan mol-mulklarga alohida shartlar ham belgilangan bo‘lib, kishi yashash joylari (uyalar), kiyadigan kiyimi, uy anjomlari, minib yuradigan hayvonlari, xizmat uchun ajratilgan qullar va ishlatiladigan qurol-aslahalardan zakot bermaydi (7:96). Yo‘qolgan va topilishidan umid uzilgan moldan ham zakot berilmaydi.

Zakatni ado qilishda yoki zakot miqdorini ajratish vaqtida “zakot deb” qilingan niyat bilan zakot berish zimmasidan soqit bo‘ladi. Aks holda majburiyat to‘liq bajarilmagan hisoblanadi. Ammo bir kishi zakot berishni niyat qilmagan holatda butun mol-mulkini sadaqa qilib yubordi. Uning ichida zakot berilishi lozim bo‘lgan qism ham bor edi. Ular istehsoniga ko‘ra u kishidan farz bo‘lgan zakot majburiyati soqit bo‘ladi.

Islom huquqida zakot berilishi lozim bo‘lgan mol-mulk va uning miqdori alohida belgilab berilgan. Marg‘inoniy “al-Hidoya”ning zakotdan keyingi o‘rinlarida hayvonlar, mol-mulk, meva, daraxt, hosildan olinadigan zakotlar haqida to‘xtalib o‘tgan.

Hayvonlardan tuya, qoramol, qo‘y va echkilar hamda otlardan zakot olinishi belgilangan. Hayvonlardan olinadigan zakotni belgilashda umumiy shart qilib yilning aksar (ko‘p) qismida o‘tloq (yaylov)da boqilgan bo‘lishi nazarda tutilgan. Hayvonlar turiga qarab miqdori va soni bir-biridan farqlanadi. Jumladan, tuyalardan olinadigan zakot miqdori 5 ta tuyadan bir yoshga to‘lgan qo‘y zakot sifatida berilishi belgilangan. Tuyalar soni undan kam bo‘lsa, zakot berilmaydi (7:97).

Tuyalar soni o‘ntaga yetsa, har yili ikkita qo‘y zakoti uchun berish farz bo‘ladi. 15 tadan 19 tagacha tuyasi bor kishi 3 ta qo‘yni zakot sifatida beradi. 20 tadan 24 tagacha yetsa, 4 ta qo‘y beriladi. Shu tarzda tuyalar soni ko‘paygani sari zakot miqdori ham ortib boradi. 35 tagacha yetsa bir yoshli tuya, 45 tagacha yetsa ikki yoshli tuya, 60 tagacha yetsa uch yoshli tuya, 75 tagacha yetsa to‘rt yoshli tuya, 90 tagacha yetsa ikki yoshli tuyadan 2 ta, 120 tagacha yetsa uch yoshli tuyadan 2 ta berish lozim bo‘ladi. Agar tuyalar soni 150 tadan oshsa, yana dastlabki miqdorga qaytib, 5 ta tuyadan 1 ta qo‘y zakot sifatida beriladi hamda shu tartib hisoblanadi.

Qoramollardan olinadigan eng kam zakot miqdori esa 30 tadan boshlanishi belgilangan. Bunda 30 ta qoramoldan bir yoshli 1 ta buzoq zakot sifatida beriladi.

Ularning soni 40 taga yetsa ikki yoshli qoramol zakot qilinadi. Qoramollar soni ortgani sari zakot miqdorini ham ko'tarib borish belgilangan. Jumladan, agar qoramollar soni 60 tagacha yetsa, 2 ta bir yoshli buzoq, 70 tagacha yetsa 1 ta ikki yoshli g'unajin va 1 ta bir yoshli buzoq, 80 tagacha yetsa 2 ta ikki yoshli g'unajin, 90 tagacha yetsa 3ta bir yoshli buzoq, 100 tagacha yetsa 2 ta bir yoshli buzoq va 1 ta ikki yoshli g'unajin zakot sifatida berilishi belgilangan. Agar qoramollar soni 100 tadan oshsa, dastlabki hisobga ko'ra miqdori chiqariladi.

Shuningdek, Janubi-Sharqiy Osiyo, Afrika, Sharqiy Yevropa kabi mamlakatlarda boqiladigan qo'tos (buyvol yoki jomus) deb nomlangan hayvonlardan xuddi qoramollar miqdorida zakot berilishi fiqhiy manbalarda keltirib o'tilgan (7:98).

Chorva qo'y va echkilardan zakot olinadigan eng kam miqdor qirqta etib belgilangan. Ya'ni 40 tadan to 120 tagacha bo'lgan qo'y va echkilardan 1 ta qo'y zakot sifatida beriladi. 121 tadan 200 tagacha 2 ta qo'y zakot qilinadi. 201 tadan 399 tagacha 3 ta qo'y, 400 tadan 4 ta qo'y zakot sifatida ajratiladi. Bundan oshgan chorva qo'ylarining har 100 tasidan 1 ta qo'y zakot sifatida har yili berilishi belgilangan (7:99).

Otlardan olinadigan zakot miqdori har bir otdan bir dinor etib belgilangan. Agar hoxlasa, otlarning umumiy narxini belgilab, har ikki yuz dirhamdan 5 dirhamini zakot uchun ajratadi. Otlar faqat erkak bo'lsa, ulardan zakot berilmaydi. Chunki ular ko'paymaydi (7:99). Shuningdek, xachir va eshaklardan hech narsa vojib emasligi ta'kidlangan.

Abu Hanifaga ko'ra, bo'taloq, buzoq, qo'zichoqlardan zakot berilmaydi. Biroq ular bilan kattalari ham bo'lsa, zakot vojib bo'ladi (7:100).

Ishlarda foydalaniladigan, yuk tashiydigan va yilning aksar qismida uyda yem-xashak berib boqiladigan hayvonlardan zakot berilmaydi.

Marg'inoniy mol-mulklardan olinadigan zakot miqdorini ham alohida bobda bayon etadi. Unda kumushdan olinadigan zakot miqdori ikki yuz dirham kumushdan besh dirham miqdorida etib belgilangan. Demak, o'rtacha 595 gm kumushdan 14.875 gm kumush miqdorida zakot olinadi (7:103).

Agar kumush miqdori ikki yuzdan oshsa, har qirq dirhamdan bir dirham miqdorida zakot ajratiladi.

Tilladan olindigan zakot miqdori 20 misqol³dan yarim misqol tilla etib belgilangan. Demak, 80 yoki 85 gramm tilladan 2 yoki 2.125 gramm tilla miqdorida zakot olinadi. Undan oshsa, har to'rt misqol tilladan ikki qiyrot⁴ miqdorida zakot olinadi. Ya'ni 17 gramm tilladan 0.425 gramm tilla miqdorida zakot belgilanadi.

³ Bir misqol 4 yoki 4.25 grammga teng o'lchov birligi.

⁴ Bir qiyrot 0.2125 grammga teng o'lchov birligi.

Agar, ular tijorat maqsadida saqlanayotgan bo'lsa, tilla va kumush taqinchoqlar, zeb-ziynat buyumlari va idishlardan zakot beriladi.

Tijorat mollaridan ham tilla yoki kumush narxida nisobga yetsa, zakot ajratish belgilanadi. Ya'ni har ikki yuz dirhamdan besh dirham miqdorida zakot olinadi.

Shuningdek, islom huquqi manbalarida hosildan olingan daromadlardan ushr olinishi belgilangan. Bunda Marg'inoniy musulmonlardan molining qirqdan bir miqdorida, zimmiylardan molining yigirmadan biri miqdorida va ahli harbdan molining o'ndan bir miqdorida ushr olinishini keltirib o'tgan (7:105).

Marg'inoniy aytadi: "Xiroj olinadigan yoki ushr olinadigan yerdan tilla, kumush, temir, qo'rg'oshin, mis kabi ma'danlar koni topilsa, ularning beshdan bir qismi olinadi" (7:107). Abu Hanifaga ko'ra, agar kishi o'z hovlisidan ma'dan topib olsa, undan biron narsa berishi vojib bo'lmaydi. Agar bir kishi boyluk topib olsa, undan xums (beshdan birini) berishi vojib bo'ladi. Yana tog'dan topilgan qimmatli toshlar, dengizdan topilgan dur va anbardan ham beshdan bir ulush beriladi.

Ekin va mevalardan zakot berish haqida Marg'inoniy Abu Hanifa so'zini keltiradi: "Erdan chiqqan narsalardan xoh u oz bo'lsin, xoh u ko'p bo'lsin ushr olinadi. Bu narsalar xoh oqar suv bilan sug'oriladigan bo'lsin, xoh osmon suvidan ichgan bo'lsin farqi yo'q. Faqat daraxt, qamish va o'tlardan ushr olinmaydi" (7:109). Yerdan olinadigan ushr miqdorini belgilashda bir yil o'tishi shart qilinmaydi. Ularning miqdori besh vasaq⁵ miqdorga yetsa, ushr olinadi.

Yana ushr olinadigan yerda boqilgan asalarining asalidan ham ushr olinadi. Imom Quduriy aytadi: "Ushr beriladigan yerdan chiqqan neft va qora moy chashmalari uchun hech narsa berilmaydi" (7:111). Chunki bular yer mahsuloti emas, balki yerdan otilib chiqqan suv kabilar hisoblanadi.

Moliyaviy majburiyatlardan biri fitr sadaqasi bo'lib, Marg'inoniy "al-Hidoya" asarida bu haqida: "Musulmon, hur kishining moli, agar o'zining turar joyi, kiyimi, uy anjomi, ot-ulovi, qurol aslahasi va qullaridan ortiqcha, nisob miqdoriga yetadigan mulkka ega bo'lsa, fitr sadaqasini berishi vojib bo'ladi", – deydi (7:115). Fitr sadaqasining miqdori, vaqti, kim berishi hamda ijtimoiy ahamiyati ikkinchi bobda keltirilgan.

Ramazon oyi ro'zasi farz qilingan bo'lib, har bir balog'atga yetgan musulmon ado qilishi lozim bo'lgan jismoniy ibodat hisoblanadi. Ammo ro'za tuta olmaydigan keksa kishi (shayxi foniy) yoki tuzalmas kasal bo'lib, ro'za tutsa kasali ziyoda bo'ladigan kishilar ro'za tutmay, uning kafforati (jarimasi) uchun ro'za tutmagan har bir kuniga bir miskinni ovqatlantiradi. Ya'ni yarim so' bug'doy yoki bir so' xurmo yoki arpa miqdorida mablag'ni fidya sifatida beradi (7:123). Shu bilan Ramazon ro'zasini ado

⁵ Bir vasaq 195 kg ga teng o'lchov miqdori.

qilgan savobga ega bo'ladi. Jismoniy ibodatni bajarish imkoniyati bo'lmagani bois bu amal moliyaviy ibodat, ya'ni fidya – bir miskinni ovqatlantirishga almashtiriladi. Bu ham moliyaviy majburiyatlarning ko'rinishlaridan biri sanaladi.

Islom shariatida ibodatlar uch tur: jismoniy, moliyaviy va ham jismoniy, ham moliyaviy ibodatlarga bo'linadi. Yuqorida moliyaviy ibodatlar va ulardagi majburiyatlar haqida to'xtalib o'tildi. Marg'inoniy o'z asarida ham moliyaviy, ham jismoniy ibodatlardan biri – Haj ibodati haqida alohida bo'lim ajratgan.

Haj ibodati ozod, balog'atga yetgan, aqlli va sog'lom kishilarga umri davomida bir marta farz hisoblanadi. Agar ular hajdan qaytib kelgunicha turar joy, zarur anjom va ahli ayolining nafaqasidan ortiqcha oziq-ovqat va ulovga ega bo'lsa hamda hajga boradigan yo'l xavfsiz bo'lsa farz bo'ladi.

Demak, haj amallarini bajarish bilan bir qatorda ziyoratchilarga borib-kelish uchun moliyaviy ta'minlanganlik sharti ham belgilangan.

Marg'inoniyning "al-Hidoya" asari orqali yuqorida keltirilgan moliyaviy ibodatlardagi o'ziga xos majburiyatlarni o'rganilganda, mana shu kabi majburiyatlar O'zbekiston qonunchiligida ham fuqarolarning atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish va soliq to'lash shaklida namoyon bo'layotganini qayd etish zarur.

XULOSA

Moliyaviy ibodatlardagi majburiyatlar islom huquqi tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularning shakllanishi va rivojlanishi bir necha tarixiy bosqichlardan iborat:

1. **Makka davri** – moliyaviy majburiyatlar asosan axloqiy-ma'naviy tavsiya sifatida (tazkiya, sadaqa berish savobi) namoyon bo'lgan. Bu davrda zakot va sadaqa hali aniq huquqiy shaklga ega emas edi.

2. **Madina davri (Hijratdan keyin, ayniqsa 2-hijriy yil)** – zakot rasman farz qilingan, uning nisob miqdori, to'lov vaqti, oluvchilar toifalari (Toba surasi, 60-oyat) va umumiy tartibi belgilangan. Zakot shaxsiy ibodatdan davlat darajasidagi majburiyatga aylangan (Ridda voqealari).

3. **Xalifa davri va ilk hanafiy olimlar davri** – Imom Abu Hanifa, Imom Muhammad ash-Shayboniy va Abu Yusuf davrida moliyaviy ibodatlar huquqiy jihatdan batafsil ishlab chiqilgan. "Kitobu-l-Asl" va "Kitobu-l-Xaroj" asarlari bu jarayonning muhim bosqichlari hisoblanadi.

4. **Keyingi rivojlanish va tizimlashtirish bosqichi** – Burhoniddin Marg'inoniy "al-Hidoya" asarida oldingi barcha qarashlarni jamlagan holda, moliyaviy ibodatlarni (zakot, ushr, fitr sadaqasi, fidya, hajning moliyaviy shartlari) mukammal huquqiy tizim sifatida taqdim etgan.

Natijada, moliyaviy ibodatlar nafaqat shaxsiy diniy-axloqiy majburiyat, balki islom jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi muhim institut sifatida shakllangan.

Moliyaviy ibodatlardagi majburiyatlarning tarixiy rivojlanishi va ularning zamonaviy ahamiyatini hisobga olgan holda quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

- Hanafiy mazhabining moliyaviy ibodatlarga oid qarashlarini zamonaviy iqtisodiy nazariyalar (soliq tizimi, ijtimoiy ta'minot, qayta taqsimlash mexanizmlari) bilan qiyosiy tahlil qiluvchi tadqiqotlar olib borish.

- "Al-Hidoya", "Kitobu-l-Asl" va "Kitobu-l-Xaroj" asarlarining moliyaviy ibodatlarga oid bo'limlarini zamonaviy o'zbek tilida to'liq yoki mavzuli tarjima qilish va sharhlar bilan nashr etish.

- O'zbekiston hududida (Movarounnahr) hanafiya mazhabi doirasida moliyaviy ibodatlar qanday amalda qo'llanilgani bo'yicha tarixiy hujjatlar asosida tadqiqotlar olib borish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alimov Z. (2019). Ibn al-Asirning "Al-Komil fi-t-tarix" asarida Qoraxitoylar davri haqida ma'lumotlar // Meros. – Toshkent.
2. Абу Юсуф Яъқуб ибн Иброҳим Куфий. (2021). Китобу-л-хароҷ / таржимон А.Маннапова. – Toshkent: O'zXIA NMB.
3. Бабаханов Ш. З. (1998). Великие мухаддисы о мире и дружбе между народами (из шести общепризнанных сборников хадисов). – Т.
4. Бурхониддин Марғиноний. (1994). Ал-Ҳидоя шарҳи бидоятил мубтадий. – Ж. 1-2. – Макка: Мустафо Аҳмад Боз.
5. Бурхониддин Марғиноний. (2020). Ал-Ҳидоя шарҳ бидоятил мубтади. Ибодатлар қисми. Биринчи жилд / Таржима ва муаллифлари: А.Қамбаров, А.Икромжонов ва И.Бекмирзаев. Сўзбоши. М.Комилов. – Т.: Ҳилол-нашр нашриёт-матбааси.
6. Ерофеев Д. (1991). Шариат – исламский кодекс права и морали // Азия и Африка сегодня. – №7.
7. Исҳоқов С.А. ва бошқ. (2012). Мусулмон ҳуқуқи. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси.
8. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири / Таржима ва тафсир муаллифи: Абдулазиз Мансур. (2018). – Тошкент: Тошкент ислом университети.
9. Маттар Н.И. (1997). Islam for Beginners. – New York, London. – P. 53.
10. Muhammad ibnu-l-Hasan ash-Shayboniy. (2012). Al-Asl. – J. 2. – Qatar: Vizoratu-l-avqof.
11. Xalof Abdulvahhob. (1985). Ilm Usulil fiqh va xulosatut tashri'il islomiy. – Qohira.

REFERENCES:

1. Alimov, Z. (2019). Ibn al-Asirning “Al-Komil fi-t-tarix” asarida Qoraxitoylar davri haqida ma’lumotlar // Meros. – Toshkent. (In Uzbek)
2. Abu Yusuf Ya’qub ibn Ibrohim Kufiy. (2021). Kitobu-l-xaroj / tarjimon A. Mannapova. – Toshkent: O‘zXIA NMB. (In Uzbek)
3. Babaxanov, Sh. Z. (1998). Velikie muxaddisy o mire i drujbe mezhdunarodami (iz shesti obshchepriznannyx sbornikov xadisov). – Toshkent. (In Russian)
4. Burhoniddin Marg‘inoniy. (1994). Al-Hidoya sharhi bidoyatil muhtadiy. – J. 1-2. – Makka: Mustafo Ahmad Boz. (In Arabic)
5. Burhoniddin Marg‘inoniy. (2020). Al-Hidoya sharh bidoyatil muhtadi. Ibadatlar qismi. Birinchi jild / Tarjima va mualliflari: A. Qambarov, A. Ikromjonov va I. Bekmirzaev. So‘zboshi. M. Komilov. – Toshkent: Hilol-nashr nashriyot-matbaasi. (In Uzbek)
6. Erofeev, D. (1991). Shariat – islamskiy kodeks prava i morali // Aziya i Afrika segodnya. – № 7. (In Russian)
7. Is’hoqov, S.A. va boshq. (2012). Musulmon huquqi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. (In Uzbek)
8. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: Abdulaziz Mansur. (2018). – Toshkent: Toshkent islom universiteti. (In Uzbek)
9. Matar, N.I. (1997). Islam for Beginners. – New York; London. – P. 53.
10. Muhammad ibn al-Hasan ash-Shaybani. (2012). Al-Asl. – Vol. 2. – Qatar: Wizārat al-Awqāf. (In Arabic)
11. Xalof, Abdulvahob. (1985). Ilm Usulil fiqh va xulosatut tashri’il islomiy. – Qohira. (In Arabic)

Oriental universitetining “Al-Buxoriy” nomli jurnali

Jurnal Oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan. Maqola muallifining fikri tahririyat fikrini ifodalamaydi.

AL-BUXORIY AL-BUKHARI

Bosh muharrir: **Farhod Maksudov**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Malika Nasirova**
Mas’ul muharrir: **Govhar Rahmatova**
Musahhah: **Gulida Norkulova**

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Norzatepa ko‘chasi, 52.
Telefon: +998 93 004-57-77. E-mail: al-buxoriy@orientaluniversity.uz

“AL-BUXORIY” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
№ 111741 raqamli guvohnomasi bilan
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Oriental universiteti Kengashining 2026-yil 17-fevral, 1-sonli yig‘ilish bayonnomasiga asosan nashrga ruxsat etildi.